O‘ZBEKISTONDA DINIY BAG‘RIKENGLIK

[1] Anvarov Muhammadsodiq Donyorbek o’g’li

[2] *Turdiyeva Shoxidaxon*

[1]Andijon davlat pedagogika instituti, Kimyo yo‘nalishi 2-bosqich talabasi.

[2]*Andijon davlat Pedagogika instituti Psixologiya va pedagogika fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi:*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda diniy bag'rikenglik va vijdon erkinligini ta’minlash maqsadida amalga oshirilgan tiklanish yoritilgan. Jumladan, diniy tashkilotlarni rivojlantirish, diniy ta’minlash, xalqaro ilmiylar tashkil etish hamda ekstremizmga qarshi kurashish masalalari tahlil qilindi. , mamlakatda turli diniy konfessiyalar o'rtasida hurmat va totuvlikni saqlab qolish chora-tadbirlarning ahamiyati ko'rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: Diniy bag'rikenglik, vijdon erkinligi, diniy konfessiyalar, ma’rifat, Islom akademiyasi, diniy ta’lim, ekstremizmga qarshi kurash, “Jaholatga qarshi ma’rifat”, Imom Buxoriy markazi, O'zbekiston.

Аннотация: В данной статье рассматриваются реформы, проведенные в Узбекистане для обеспечения религиозной терпимости и свободы совести. В частности, проанализированы вопросы развития религиозных организаций, религиозного обеспечения, организации международных научных конференций и борьбы с экстремизмом.

Подчеркивается важность мер по поддержанию уважения и гармонии между различными религиозными конфессиями в стране.

Ключевые слова: Религиозная терпимость, свобода совести, вероисповедание, просвещение, Исламская академия, религиозное образование, борьба с экстремизмом, «Просвещение против невежества», Центр Имама Бухари, Узбекистан.

Abstract: This article examines the reforms implemented in Uzbekistan to ensure religious tolerance and freedom of conscience. In particular, the issues of developing religious organizations, religious provision, organizing international scientific conferences, and combating extremism were analyzed. , The importance of measures to maintain respect and harmony between different religious confessions in the country is highlighted.

Key words: Religious tolerance, freedom of conscience, religious confessions, enlightenment, Islamic Academy, religious education, fight against extremism, "Enlightenment against ignorance", Imam Bukhari Center, Uzbekistan.

Kirish: 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi doirasida so‘nggi 3 yil davomida diniy bag‘rikenglikni ta’minlash sohasida quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirildi:BMT Bosh Assambleyasi 2018-yilning 12-dekabr oyida o‘tkazilgan yalpi majlisda «Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik» deb nomlangan maxsus rezolyutsiyani qabul qildi. O‘zbekiston tomonidan ishlab chiqilgan hujjat loyihasi BMTning barcha a’zo davlatlari tomonidan bir ovozdan qo‘llab-quvvatlandi. Mazkur rezolyutsiyani qabul qilish tashabbusi 2017-yil sentabr oyida BMT Bosh Assambleyasining Nyu-Yorkdagi 72-sessiyasida O‘zbekiston

Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan ilgari surildi.2018-yil 16-apreldagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3668-sonli Qaroriga muvofiq Qo‘mita huzurida faoliyat yuritadigan jamoatchilik-maslahat organi hisoblanmish Konfessiya ishlari bo‘yicha kengashning yangi tarkibi tasdiqlandi. Kengash tarkibi 9 tadan 17 ta a’zoga – O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan diniy konfessiyalar vakillari hisobiga kengaydi.2018-yilning 16-aprelida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev «Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5416-sonli Farmonni imzoladi. Mazkur hujjat O‘zbekistonda diniy ta’lim tizimining uzluksizligini ta’minlashga qaratilgan: boshlang‘ich bosqichdan (o‘rta maxsus islom ta’lim muassasalari yoki madrasalar) tortib, to oliy va undan keyingi diniy ta’limgacha.2019-yil 4-sentabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-4436-sonli qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha Qo‘mitaning Ichki ishlar vazirligi, O‘zbekiston yoshlar Ittifoqi, O‘zbekiston xotin-qizlar qo‘mitasi va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha Respublika kengashi bilan jamiyatda vijdon erkinligi va diniy-ma’rifiy muhit barqarorligi kafolatlarini ta’minlash maqsadida mustahkam va doimiy hamkorlikni nazarda tutuvchi yangi tizim joriy etildi.Bundan tashqari, Din ishlari bo‘yicha qo‘mita tarkibida ayollar bilan ishlash bo‘limi tashkil etildi, shuningdek, ushbu yo‘nalishdagi ishlarni nazorat qiluvchi rais o‘rinbosari lavozimi ham joriy etildi. Xotin-qizlar o‘rtasida

ma’naviy-ma’rifiy ishlarni muvofiqlashtirish bo‘yicha Respublika targ‘ibot guruhi tashkil etildi.O‘zbekiston Islom akademiyasi va Toshkent Islom universiteti negizida O‘zbekiston xalqaro Islom akademiyasi tashkil etildi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Samarqand, Namangan va Surxondaryo viloyatlarida Akademiya tarkibidagi malaka oshirish Markazi hududiy filiallari tashkil etildi. O‘zbekiston xalqaro Islom akademiyasi huzurida “Ziyo” media-markazi tashkil etilib, u ajdodlarimizning diniy-ilmiy merosini keng targ‘ib qilish, dinning haqiqiy insonparvarlik maqsadini hamda diniy-ma’rifiy hayotda sodir bo‘layotgan yangiliklardan keng jamoatchilikni xabardor qilib borishni ta’minlovchi asosiy media-tuzilma hisoblanadi. O‘zbekiston musulmonlari idorasi huzurida “Vaqf” xayriya jamoat fondi tashkil etildi. Uning asosiy vazifasi masjidlar, ziyoratgohlar, muqaddas qadamjolar va shu kabi boshqa obyektlarning rekonstruksiyasini moliyalashtirish, ularni moddiy-texnik bazasini yaxshilash hamda ushbu soha xodimlarini moddiy qo‘llab-quvvatlashdan iboratdir. 2018-yilning yanvar-aprel oylarida Respublika miqyosida bir necha bosqichdan iborat (tuman, shahar, viloyat, respublika) Qur’oni karim tilovati bo‘yicha qorilar ochiq musobaqasi tashkil etilib, unda 5 mingdan ziyod ishtirokchi qatnashdi. O‘zbekistonda Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy va Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari tashkil etildi. Viloyatlarda kalom, hadis, fiqh, aqida ilmi va tasavvufni o‘rganishga ixtisoslashgan beshta ilmiy maktab ochildi. Islom sivilizatsiyasi markazi tomonidan O‘zbekistonda Markaziy Osiyo musulmon mutafakkirlarining jahon sivilizatsiyasi rivojidagi roliga bag‘ishlangan 10 dan ortiq kitob va risolalar tayyorlandi. Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan Imom Termiziy, Hakim Termiziy va termizlik boshqa olimlarning 20 dan ortiq asarlari o‘zbek tiliga tarjima qilindi. Imom Buxoriy

xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Imom Nasafiy, Alouddin Usmondiy, Saffar Buxoriy va h.k. kabi ulug‘ allomalar asarlarining aksariyati tarjima qilinib, 50 dan ziyod kitob nashr etildi.Ayni paytda O‘zbekiston Respublikasida jami 2276 ta diniy tashkilot va 16 ta diniy konfessiya faoliyat yuritib kelmoqda. Shulardan 2093 tasi musulmon tashkiloti, 166 ta xristian tashkiloti, 8 ta yahudiy jamoasi, 6 ta Baxoiylik jamiyati, 1 ta krishnachilar jamiyati va 1 ta budda ibodatxonasi, shuningdek, O‘zbekiston konfessiyalararo Bibliya jamiyati ham faoliyat ko‘rsatmoqda. 2019-yilda O‘zbekistonda 10 ta yangi jome masjid ochildi, natijada masjidlarning umumiy soni 2066 taga yetdi. Bundan tashqari, mamlakat miqyosida 46 ta jome masjid binosi butunlay qaytadan bunyod etilib, 225 ta masjid kapital ta’mirdan chiqarildi. 2018 yilda esa respublikada 13 ta jome masjidi qayta ochildi, 39 tasi yangi qurildi va qariyb 100 tasi qayta ta’mirlandi.O‘zbekistonda Toshkent Islom universiteti, «Mir Arab» oliy madrasasi, Hadis ilmi maktabi, 9 ta madrasa, jumladan, 2 ta ixtisoslashtirilgan xotin-qizlar o‘quv yurti, Toshkent pravoslav seminariyasi, Toshkent xristian seminariyasi kabi diniy ta’lim muassasalari faoliyat ko‘rsatmoqda. 2020–2021-o‘quv yilidan boshlab Termiz shahrida yangi madrasa ochilishi rejalashtirilgan. Mustaqillik yillarida 308 ming nafar musulmon Saudiya Arabistoniga ziyorat uchun borgan bo‘lsa, shulardan 130 ming kishi “Haj”, 178 ming kishi esa “Umra” amalini bajarishga muvaffaq bo‘lgan. 2,5 ming xristian va yahudiylar Isroil, Rossiya, Turkiya, Italiya, Gruziya va Yunoniston kabi davlatlarning muqaddas diniy qadamjolariga tashrif buyurganlar. 2019-yildan e’tiboran O‘zbekiston fuqarolari uchun “Umra” ziyoratlari kvotasi bekor qilindi. 2018-yildan boshlab “Umra” safari kvotasi 6 000 dan 10 000 ga oshirildi. Bugungi kunga kelib “Umra” qiluvchi fuqarolar

soni 30 000 ga yetdi, “Haj” esa 5000 dan 7,200 ga ko‘paydi.

O'zbekistonda diniy bag'rikenglikni ta’minlash bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar

№	Chora-tadbir	Qisqacha mazmuni
1	BMT rezolyutsiyasi	“Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” rezolyutsiyasi qabul.
2	Konfessiyalar kengashi	Kengash tarkibi kiritildi.
3	Diniy ta’lim islohoti	Uzluksiz diniy ta’lim tizimi yaratildi.
4	Hamkorlik tizimi	Davlat va jamoat tashkilotlari hamkorligi kuchaydi.
5	Ayol bo'limi	Xotin-qizlar bilan ishlash tizimi yo'lga qo'yildi.
6	Islom akademiyasi	O'zbekiston xalqaro Islom akademiyasi tashkil etildi.
7	“Ziyo” media-markazi	Diniy-ma’rifiy targ‘ibot kuchaytirildi.
8	“Vaqf” fondi	Masjid va ziyoratgohlar qo'llab-quvvatlandi.
9	Qur’on musiqalari	Qorilar o'rtasida tanlovlar o'tkazildi.
10	Ilmiy markazlar	Imom Buxoriy va Imom Termiziy markazlari ochildi.

2020-yil 3-4-mart kunlari Samarqand shahrida “Imom Moturidiy va moturidiya ta’limoti: o‘tmish va bugun” mavzusidagi xalqaro konferensiya tashkil etildi. Ushbu tadbirda 15 mamlakatdan 55 nafar taniqli ulamolar, muftiylar, moturidiyshunos ekspertlar, 100 nafar mahalliy olim va tadqiqotchilar qatnashdi.

Konferensiya yalpi majlisida 11 ta, shoʻba yigʻilishlarida 32 ta maʼruza tinglandi. Maʼruzalarda Imom Abu Mansur Moturidiy shaxsi va aqidaviy qarashlari, moturidiylikning mafkuraviy asosi, moturidiya kalom maktabiga oid yangi manbalar, ushbu taʼlimotning bugungi kundagi ahamiyati haqida fikrlar bildirildi. Soʻnggi yillarda Oʻzbekistonda ekstremizmga qarshi kurashish chora-tadbirlarini amalga oshirishdagi yondashuvlar konseptual jihatdan qayta koʻrib chiqildi. Bunda asosiy eʼtibor aholi oʻrtasida profilaktika va tushuntirish ishlariga qaratildi. Ushbu sohada amalga oshirilayotgan barcha saʼy-harakatlar «Jaholatga qarshi maʼrifat» degan ezgu gʻoyaga asoslangan. 2018-yilning sentyabr oyida terroristik, ekstremistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilot va guruhlarga adashib aʼzo boʻlib qolgan Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolarini jinoiy javobgarlikdan ozod qilish tartibi tasdiqlandi. Ilgari toʻgʻri yoʻldan adashgan va oʻz xatti-harakatlariga chin dildan pushaymon boʻlgan fuqarolarga maʼnaviy-axloqiy burchlarini ado etish uchun jamiyat va oʻz oilalariga qaytish imkoniyati beriladi. Diniy ekstremistik oqimlarga aloqador shaxslarni reabilitatsiya qilishning muhim qadamlaridan biri, bu ularga nisbatan avf etish aktlarini qoʻllash boʻldi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda diniy bag'rikenglik va vijdon erkinligini taʼminlash muhimligini oshirish amalga oshirildi. Diniy faoliyat yuritildi, diniy taʼlim va ilmiy markazlar rivojlantirildi hamda turli konfessiyalar oʻrtasida oʻzaro hurmat muhiti mustahkamlandi. , ekstremizmga qarshi “Jaholatga qarshi maʼrifat” chiqishiga asosan maʼrifiy ishlar olib borilib, fuqarolarning diniy erkinliklari yanada keng taʼminlandi. Bu barqarorlik O'zbekistonda tinchlik, millatlara totuvlik va diniy bog'lanishga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. www.strategy.uz | © 2019, "Taraqqiyot strategiyasi" markazi.